


## 2019 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtda viloyatda 22,4 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 14,0 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 62,5 % ni tashkil etdi.

### 2019 yil 1 mart holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 9,3 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019 yil 1 mart holatiga ko'ra, ularning ulushi 66,6 % tashkil etdi.

**2019 yil 1 mart holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (37,8 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1186,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil etdi.


### 2019 yil yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 185,1 mlrd. so'mga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (49,6 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (27,0 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (59,8 mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlari (4,8 mlrd.so'm), shaxsiy xizmatlar (6,3 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.

### 2018-2019 yil yanvar-fevral oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



**Ma'lumot uchun:** 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 337,9 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 235,7 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 108,5 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 64,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.


## 2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1186,9</b>	<b>108,3</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	64,4	99,3
moliyaviy xizmatlar	168,3	150,5
transport xizmatlari	262,7	103,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	248,4	100,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	34,8	100,5
savdo xizmatlari	387,5	102,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	38,9	103,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	32,0	115,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14,1	120,5
ijara xizmatlari	34,1	101,5
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	43,2	101,6
shaxsiy xizmatlar	45,2	101,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	14,2	119,2
boshqa xizmatlar	47,5	105,8

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (150,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,5 %), me'morchilik,

muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (119,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (115,1 %) kabi xizmat turlarida qayd tildi.

### 2019 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




O'tgan yilning shu davriga nisbatan kamayish sur'ati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (99,3 %) kuzatildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari (100,5 %), shaxsiy xizmatlar (101,6 %) va ijara xizmatlari (101,5 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqinini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 32,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni

transport xizmatlari (22,1 %), moliyaviy xizmatlar (14,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,4 %) egallaydi.

**2019 yil yanvar-fevral oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi**






2019 yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 387,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil etdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 84,0 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,0 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,0 % ni egallaydi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 168,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 150,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (94,7%) tashkil etadi.

### 2019 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019 yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 32,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 115,1 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 34,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,9 % ga yetdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 91,9 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,1 % ga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har yilda o'sishi kuzatilmoqda. 2019 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 369,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 51,2 ming so'mga oshdi.

### **Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**75-221-44-32**

**71-230-84-03**